



QADIMGI AFINA VA YUNONISTON NOTIQLIK MAKTABLARINING USLUBLARI

Shotemirov S.

*Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va san'at fakulteti
Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi*

Tayanch soʻzlar: notiqlik, soʻzlashish, ritorika, mahorat, suxbat metodi, akademiya, Afina, Rim, Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperd.

Ключевые слова: красноречие, говорение, риторика, мастерство, манера разговора, академия, Афины. Рим, Антифон, Андокид, Лисий, Исократ, Иссей, Ликург, Демосфен, Эсхин, Гиперд.

Key words: eloquence, speaking, rhetoric, skill, method of conversation, academy, Athens. Rome, Antiphon, Andokides, Lysias, Isocrates, Issaeus, Lycurgus, Demosthenes, Aeschines, Hyperd.

Qadimgi Afina davlatida notiqlik san'at alohida qadrlanib, oliy martabali kishilar yuksak darajada o'rganishi kerak bo'lgan san'at turi hisoblangan. Xususan notiq Gorgiyning asarlariga nazar tashlaydiigan bo'lsak, u targ'ib etgan "go'zal" uslubning yolg'iz tamtaroqli balandparvoz jim-jimador tashqi bezaklardan, iboralardan tashkil topganligiga ishonch xosil qilish mumkin. Notiq Gorgiyning bizgacha yetib kelgan asarlarida majoziy ifodalar va tantanali epitetlar, juda ko'p uchraydi. Yozuvchi, hatto jummalarni ham bo'g'in-bo'g'inlarga bo'lib, ularning har birini bir xil uzunlikda to'qiydi va har qaysi jumlaning oxirini bir-biriga o'xshash qofiyadoshroq so'zlar bilan tugatadi. Afinaliklar Gorgiyning usulini "jimjimador uslub" deb atashgan Boshqacha aytganda muallifning nomiga tarif berib "Gorgiy uslubi" deb ham atashganlar. Notiq Gorgiyning bu uslubi o'sha davr odamlarida hush yoqqan va ularda juda kuchli ta'sir qilgan. Shu tufayli ham uning ijodi ko'p yillar notiqlik nasrining asosiy namunasi sifatida qo'llanib kelingan. Ellinizm davridagi olimlar Afinada yashagan va ijob qilgan notiqlardan o'nta notiqni xususan Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperd va Dinarxlarni mashhur



notiq deb, ritorika ilmini o'rganishda ularning asarlaridan foydalanishgan. Shu tufayli ularning asarlari bizgacha etib kelgan. G'arbda notqlik san'ati ritorika deb nomlangan. Ritorika alohida fan sifatida o'qitilib uni barcha o'qimishli odam bilishi kerak bo'lgan. Ayniqsa Rim imperatorlari, Senat oqsoqollari bu san'atni puxta egallashi talab etilgan. Afina davlati jahonga notqlik san'atining yirik namoyondalarining yetkazib berdi. Afinada maxsus notqlik maktablari ochilib, so'z san'atini mukammal egallagan notqlar o'quvchilarga saboq bera boshladilar. Qadimgi Yunonistonning dastlabki notqlari xaqida Pomerning "Iliada" va "Odissey" asarlarida asosli ma'lumot keltirilgan. Bunda eramizdan avvalgi XIII - XII asrlarda Yunonistonda dong taratgan Nestor, Meneley, Odissey, Ahill, kabi notqlar haqida juda qiziqarli ma'lumotlar berilgan. Gomerining «Illiada» va «Odissey» asarlari bizga Gretsiyaning birinchi notqlari haqida ma'lumot beradi. Taniqli Rim notig'i, nazariyachi va pedagog Kvintellian Gomer asarlarida chiroyli gapirish va nutq so'zlashning dastlabki namunalarini ko'rdi. «Illiada» turli xildagi notqlar haqida ma'lumot beriladi. Ma'rifatparvar kishi sifatida o'z atrofiga Anaksador, Suqrot, Geradot, Sofokl, Fidiy kabi shunday buyuk siymolarni to'plagan va ularga homiylik qilgan. Notqlik san'atida Perikl, o'z notqlik maktabi bilan mavjud rasmiy notqlik uslublariga qaqshatgich zarba bergan va o'z zamondoshlarini ergashtir "Tonika"gan, muzokara bobida juda kuchli bo'lgan Kleon logografik bilan shug'ullangan. U o'zidan keyin o'tgan Lisiy, Gipened va Demosfen kabi yirik notqlar ijodiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Lisiy notqlik, falsafa yurispredensiya sohasida o'z zamonasining yirik fan va madaniyat arboblari bo'lgan. Suqroq, Tisiy Gordiylardan ta'lim olgan. Uni o'zi Afinada ochgan notqlik maktabi katta shuhrat qozongan. Suqrot o'z nutqlarida istagancha rivoyat, afsona, naql va hikmatlarni ham qo'shib yuborgan. [3] Mukammal nutq so'zlash san'atiga katta uslubiy hissa qo'shgan Buyuk faylasuf Arastudir. (eramizdan avvalgi 384-322 y) Arastu o'zining asarida dialektika, falsafa, mantiq fanlarining notqlik bilan bog'liq xususiyatlarini ko'rsatsa, "Notqlik san'ati" asarida u butun diqqat e'tiborini bevosita notqlikka, notqlik maxorati va san'atiga, notiqning o'zini tutishi va davlat va jamiyat hayotidagi o'rniga qaratadi. Xususan, notqlik Arastu fikricha, dialektikani bir qismini tashkil etadi. Notqlikdan qiroat fani sifatida ijobiy va shuningdek salbiy ma'noda foydalanish mumkin. Notiq o'z maxorati bilan haqiqatni topishga harakat qilsa, u haqiqiy dialektikaga yaqinlashishi mumkin. Biroq notiq o'z notqligini haqiqatga qarshi qaratgan bo'lsa, u sofistikaga yaqinlashadi. Sofistik dialektika haqiqatni o'rnatish uchun emas, balki g'alabaga erishish uchun safsatobozlik san'atidan foydalanishdir. Notqlik - deydi Arastu, haqiqat yo'lida qo'llansa, dialektikaning qismiga

aylanishi mumkin. Uning fikricha bo'lajak notiq kuchli xotiraga, so'z boyligiga, shuningdek muayyan hududdagi axvoldan batafsil xabardor bo'lishi kerak. Notiq qaysi paytda so'z urg'usini kuchaytirish - u, qaysi paytda yumshoqlik bilan nutq o'qishni bilishi kerak. Bu juda muhim bo'lib, ko'proq tinglovchilar reaksiyasi bilan hamohang keladi. Arastu o'z fikrini tinglovchiga yetkazishda arzon harakatlar: opponentning ustidan kulish, fikrni chalg'itish bilan emas, balki ilmiy metod orqali yondashish kerak deb hisoblaydi. Bundan tashqari Suqrotni ham alohida tilga olish o'rinli. Suqrot afinadagi mashhur notiqlardan biri bo'lgan. Suqrot notiqlik mahorati sabab qo'liga tushgan istalgan ishni o'zi va mijozi foydasiga hal qila olganini aytish joiz. Litsey kabi notiqlik san'atidan kasb o'rnida foydalangan. Buyuk davlat arbobi sifatida u juda ko'p siyosiy nutqlar so'zlagan. Demosfen o'zining yuksak saviyali ta'sirchan diklomaticiyasi bilan tinglovchilar qalbini jalb etgan va shu sababli bo'lsa kerak Attikalik o'nta notiq qonuniga kiritilgan. Exsen demokratiya tarafdori bo'lib, Demosfen bilan birgalikda Afina davlati va Yunon xalqining iqboli uchun kurash olib borgan. Psixika va odamning ovoqli apparati (nutq a'zolari) o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Agar ma'ruzachining fikrlari va his-tuyg'ulari zaif, o'zida qo'rquv bo'lsa uning nutqi bir xil bo'lib qoladi. Notiqlik nutqining maqsadi - ma'ruzachining tinglovchilar oldida o'z pozitsiyasini ko'rsatishi, o'z nuqtai nazarini himoya qilishidir. Bu maqsadiga u tayyor nutq va notiqlik texnikasi yordami bilan erishadi. Ana shu ehtiyoj sababli notiqlik nazariyasi yaratildi va quyidagi jarayonlar belgilandi:

- Materialni xar tomonlama tayyorlash;
- Materialni joylashtirish rejasini belgilash;
- Materialni o'zlashtirish, nutq qurilishini to'g'irlash;
- Notiqning nutq materialini o'rganishi;
- Materialni so'z bilan ifodalash;
- Nutqni talaffuz qilish, ya'ni nutq jarayoni.

Bu talablar xozir ham o'z kuchini saqlab kelmoqda. Tabiiy nutqiy qobiliyatining namoyon bo'lishi ko'pincha kundalik hayotda uchraydi. Masalan turli ekstrimal holatlar paytida shaxs nutqiy texnikasining elementlari shakllanadi. Notiqlikning bunday namoyon bo'lishi maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi. Bunday holatlarda ovoz tabiiy ravishda, his-tuyg'ular va tegishli sharoitlarda ko'tariladi. Biror kishida ishonchli bir narsani aytishi kerak bo'lgan holat ammo kerakli his-tuyg'ular yo'q bo'lsa nutq yaxshi chiqmaydi. Bunday holatda maxsus tayyorgarlik ko'nikmalari talab qilinadi, ularni tabiiy vositalardan amaliy foydalanish jarayonida qo'llash mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Alimuhamedov. A. “Antik adabiyot tarixi”, T.: O’qituvchi, 1969 y. 199-bet
2. Bekmirzayev Norqul. Nutq madaniyati va notiqlik asoslari (O’quv qo’llanma) Toshkent O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyas “Fan” nashriyoti 2007
3. Sitseron „Notiqlik san’ati” O’zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti. Toshkent. 2018-yil.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada qadimgi Afina va Yunoniston notiqlik maktablarining faoliyati, ularning shakllanish tarixi, notiqlik uslublarining rivojlanishi, G’arb mutaffakirlarining notiqlik san’atiga qo’shgan hissasi, notiqlik san’ati haqida yozilgan tarixiy asarlar haqida ma’lumotlar berilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье представлены сведения о деятельности древних афинских и греческих школ ораторского искусства, истории их становления, развитии ораторских стилей, вкладе западных мыслителей в ораторское искусство, а также об исторических трудах, написанных об ораторском искусстве.

SUMMARY

This article provides information about the activities of the ancient Athens and Greek schools of oratory, the history of their formation, the development of oratory styles, the contribution of Western thinkers to the art of oratory, and historical works written about the art of oratory.